# DIE PRÜFUNGEN DES GOETHE-INSTITUTS
# GYOTE-INSTITUTI IMTIHONLARI

## PRÜFUNGSORDNUNG
## IMTIHON O'TKAZISH TARTIBI

Stand: 1. September 2023
Tahrir: 1 sentabr 2023 y.

Zertifiziert durch
Sertifikat bergan tashkilot

ALTE Q218

GOETHE INSTITUT
Sprache. Kultur. Deutschland.

## Prüfungsordnung des Goethe-Instituts e.V.

Stand: 1. September 2023

Die Prüfungen des Goethe-Instituts sind zum Nachweis von Sprachkenntnissen in Deutsch als Fremdsprache und Deutsch als Zweitsprache konzipiert und werden an den in § 2 dieser *Prüfungsordnung* genannten Prüfungszentren weltweit sowie unter bestimmten Voraussetzungen online (vgl. § 1, § 3) nach einheitlichen Bestimmungen durchgeführt und bewertet.

Für die Prüfungen des Goethe-Instituts gelten die folgenden Regelungen:

- Die *Allgemeinen Geschäftsbedingungen* des jeweiligen Prüfungszentrums regeln den Vertragsschluss und die Vertragsabwicklung.
- Die *Prüfungsordnung* umfasst die für alle Prüfungen des Goethe-Instituts geltenden allgemeingültigen Regelungen wie z.B. die Bedingungen zur Prüfungsteilnahme und Anmeldung, zum Ausschluss von der Prüfung, Zertifizierung sowie ggf. Einsichtnahme.
- In den Anhängen der *Prüfungsordnung* sind die von der *Prüfungsordnung* abweichenden und/oder zusätzlich geltenden Regelungen für Digitale Deutschprüfungen oder Online-Deutschprüfungen (vgl. 1.2.2 und 1.2.3) beschrieben.
- Die *Durchführungsbestimmungen* beschreiben die Bestandteile der einzelnen Prüfungen und regeln die prüfungsspezifischen Bedingungen der Prüfungsorganisation, des Ablaufs, der Bewertung sowie die Berechnung der Prüfungsergebnisse.
- In den Anhängen der *Durchführungsbestimmungen* sind die von den *Durchführungsbestimmungen* abweichenden und/oder zusätzlich geltenden Regelungen für Digitale Deutschprüfungen oder Online-Deutschprüfungen (vgl. 1.2.2 und 1.2.3) beschrieben.
- Die *Ergänzungen zu den Durchführungsbestimmungen: Prüfungsteilnehmende mit spezifischem Bedarf* beinhalten mögliche Sonderregelungen für Prüfungsteilnehmende mit spezifischem Bedarf, sofern der spezifische Bedarf bereits bei der Anmeldung durch einen geeigneten Nachweis belegt wird.

## Gyote-Instituti e.V. ning imtihon o'tkazish tartibi

Tahrir: 1 sentabr 2023 y.

Gyote-Institutining imtihonlari nemis tilini xorijiy til va ikkinchi til sifatida bilish darajasini tasdiqlash uchun mo'ljallangan bo'lib, ular *Imtihon o'tkazish tartibi*ning 2-bandida ko'rsatilgan, butun dunyo bo'ylab joylashgan imtihon markazlarida, shuningdek, muayyan sharoitlarda onlayn tarzda ham (qarang: § 1, § 3), yagona standartlarga muvofiq o'tkaziladi va baholanadi.

Gyote-Institutining imtihonlarini o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

- Shartnomani tuzish va uni amalga oshirish tegishli imtihon markazining *Umumiy shartlari* bilan tartibga solinadi.
- *Imtihon o'tkazish tartibi* Gyote-Institutining barcha imtihonlarini o'tkazish uchun umumiy qoidalarni o'z ichiga oladi, masalan, imtihon topshirish, imtihonga ro'yxatdan o'tish va imtihonga kiritilmaslik shartlari, shuningdek, sertifikatlash va zarur holatlarda tekshirish shartlari.
- *Imtihon o'tkazish tartibi* ning ilovalarida nemis tilidan imtihonlarni raqamli yoki onlayn tarzda o'tkazish bo'yicha *Imtihon o'tkazish tartibi* dagi o'zgarish va/yoki unga kiritilgan qo'shimcha qoidalar o'rin olgan (1.2.2 va 1.2.3-bandlarga qarang).
- *Imtihon o'tkazish qoidalari* tegishli imtihonlarning tarkibiy qismlarini tavsiflaydi va har bir imtihonni tashkil etish, o'tkazish, imtihon natijalarini baholash va hisoblashning o'ziga xos shartlarini tartibga soladi.
- *Imtihon o'tkazish qoidalari*ning ilovalarida nemis tilidan imtihonlarni raqamli yoki onlayn tarzda o'tkazish bo'yicha *Imtihon o'tkazish qoidalari*dagi o'zgarish va/yoki unga kiritilgan qo'shimcha qoidalar o'rin olgan (1.2.2 va 1.2.3-bandlarga qarang).
- *Imtihon o'tkazish qoidalariga qo'shimchalar: imkoniyati cheklangan imtihon topshiruvchilar* imkoniyati cheklangan imtihon topshiruvchilar uchun maxsus qoidalarni o'z ichiga oladi va imtihonga ro'yxatdan o'tish vaqtida ular tomonidan kerakli hujatlar tadim etilgachgina kuchga kiradi.

## § 1 Grundlagen der Prüfung

1.1 Diese *Prüfungsordnung* ist für alle unter § 3 genannten Prüfungen des Goethe-Instituts gültig. Es gilt die jeweils zum Zeitpunkt der Anmeldung aktuelle Fassung.

1.2 Abhängig vom Prüfungsangebot und den Voraussetzungen am Prüfungszentrum werden die unter § 3 genannten Prüfungen in den folgenden Formen durchgeführt:

1.2.1 Papierbasierte Prüfungen werden in Präsenz an einem Prüfungszentrum des Goethe-Instituts abgelegt. Die Prüfungsmaterialien werden in Papierform ausgehändigt und von den Prüfungsteilnehmenden mit einem Stift bearbeitet.

1.2.2 Digitale Deutschprüfungen werden in Präsenz an einem Prüfungszentrum des Goethe-Instituts abgelegt. Die Prüfungsaufgaben der schriftlichen Prüfungsteile/Module werden an einem Laptop des Prüfungszentrums bearbeitet. Die mündliche Prüfung findet analog zu 1.2.1 in Präsenz und mit papierbasiertem Material statt.

1.2.3 Online-Deutschprüfungen werden unter bestimmten Voraussetzungen (vgl. zusätzliche Regelungen in den Anhängen der *Prüfungsordnung* und *Durchführungsbestimmungen*) ortsunabhängig an einem privaten Desktop-Computer oder Laptop abgelegt.

1.3 Prüfungsaufbau, Inhalt und Bewertung sind im Print-, Digital- und Online-Format identisch.

1.4 Das Goethe-Institut publiziert zu jeder Prüfung einen *Modellsatz* sowie einen oder mehrere *Übungssätze*, die für alle Prüfungsinteressierten im Internet einsehbar und zugänglich sind. Gültig ist jeweils die zuletzt veröffentlichte Fassung.
In diesen *Modell-* und *Übungssätzen* zu den einzelnen Prüfungen sind Aufbau, Inhalt und Bewertung verbindlich beschrieben.

1.5 Unter die Begriffe Prüfungen und Prüfungsteile fallen im Sinne dieser *Prüfungsordnung* auch Module, die einzeln oder in Kombination abgelegt werden können.

## § 1 Imtihon o'tkazish asoslari

1.1. Ushbu *Imtihon o'tkazish tartibi* Gyote-Institutining § 3da ko'rsatilgan barcha imtihonlariga taalluqlidir. Uning aynan ro'yxatdan o'tish vaqtidagi shakli amaldagi shakl hisoblanadi.

1.2 Imtihon markazlarida taklif etilayotgan imtihonlar va uyerdagi shart-sharoitdan kelib chiqib, § 3da ko'rsatilgan imtihonlar quyidagi shakllarda o'tkaziladi:

1.2.1 Qog'oz shaklidagi imtihonlar Gyote-Institutining imtihon markazlaridan birida shaxsan ishtirok etish orqali topshiriladi. Imtihon materiallari qog'oz shaklida chiqariladi va imtihon ishtirokchilari ruchka yordamida o'z javoblarini qayd etadilar.

1.2.2 Nemis tilidan raqamli imtihonlar Gyote-Institutining imtihon markazlaridan birida shaxsan ishtirok etish orqali topshiriladi. Yozma imtihon qismlari/modullarining topshiriqlari ustida ishlash imtihon markazining noutbukida amalga oshiriladi. Og'zaki imtihon 1.2.1-bandda ko'rsatilganidek, qog'oz shaklidagi materiallar yordamida va shaxsan ishtirok etish orqali o'tkaziladi.

1.2.3 Nemis tilidan onlayn imtihonlar tegishli shartlarga amal qilgan holada (*Imtihon o'tkazish tartibi* va *Imtihon o'tkazish qoidalari*ning ilovalaridagi qo'shimcha qoidalarga qarang) topshirish joyidan qat'i nazar, alohida ekranli ish stoli kompyuterida yoki shaxsiy kompyuterda (noutbukda) topshiriladi.

1.3 Imtihonning tuzilishi, mazmuni va baholanishi qog'oz shaklidagi, raqamli va onlayn formatlarda bir xil.

1.4 Gyote-Instituti har bir imtihon uchun *Namunaviy imtihon variantlari to'plami*, shuningdek, internet sahifa orqali ko'rishi va foydalanishi mumkin bo'lgan bir yoki bir nechta *Mashqlar to'plami*ni nashr etadi. Eng so'nggi nashr etilgan versiya amaldagi shakl hisoblanadi.
*Namunaviy imtihon variantlari* va *Mashqlar to'plami* tegishli imtihonlarning tuzilishi, mazmuni va baholash shrartlarini tavsiflaydi.

1.5 Ushbu *Imtihon o'tkazish tartibi* da berilgan "imtihon" va "imtihon qismlari" atamalari, alohida yoki birgalikda topshirilishi mumkin bo'lgan modullarni ham o'z ichiga oladi.

## § 2 Prüfungszentren des Goethe-Instituts

Die Prüfungen des Goethe-Instituts werden durchgeführt von:

- Goethe-Instituten in Deutschland und im Ausland,
- Goethe-Zentren im Ausland
- sowie den Prüfungskooperationspartnern des Goethe-Instituts in Deutschland und im Ausland.

## § 2 Gyote-Institutining imtihon markazlari

Gyote-Institutining imtihonlari quyidagi tashkilotlar tomonidan o'tkaziladi:

- Germaniya va xorijdagi Gyote-Institutlarida,
- xorijdagi Gyote-markazlarida
- shuningdek, Gyote-Institutining Germaniya va xorijdagi imtihonlar bo'yicha hamkor tashkilotlarida.

## § 3 Teilnahmevoraussetzungen

3.1 Die Prüfungen des Goethe-Instituts können von allen Prüfungsinteressierten mit Ausnahme der unter 3.3 bis 3.5 und 3.7 genannten, unabhängig vom Erreichen eines Mindestalters und unabhängig vom Besitz der deutschen Staatsangehörigkeit abgelegt werden.
Es werden bezüglich des Alters der Prüfungsteilnehmenden folgende Empfehlungen gegeben:

Prüfungen für Jugendliche (ab 10 Jahren):
- GOETHE-ZERTIFIKAT A1: FIT IN DEUTSCH 1

Prüfungen für Jugendliche (ab 12 Jahren):
- GOETHE-ZERTIFIKAT A2 FIT IN DEUTSCH
- GOETHE-ZERTIFIKAT B1

Prüfung für Jugendliche (ab 15 Jahren):
- GOETHE-ZERTIFIKAT B2

Prüfungen für Erwachsene (ab 16 Jahren):
- GOETHE-ZERTIFIKAT A1: START DEUTSCH 1
- GOETHE-ZERTIFIKAT A2
- GOETHE-ZERTIFIKAT B1
- GOETHE-ZERTIFIKAT B2
- GOETHE-ZERTIFIKAT C1
- GOETHE-ZERTIFIKAT C1 (modular ab 2024)

Prüfung für Erwachsene (ab 18 Jahren):
- GOETHE-ZERTIFIKAT C2: GROSSES DEUTSCHES SPRACHDIPLOM

## § 3 Ishtirok etish shartlari

3.1 Gyote-Instituti imtihonlarida barcha imtihon topshirish istagidagilar, balog'at yoshiga yetgan, Germaniya fuqaroligiga ega bo'lishidan qat'i nazar, ishtirok etishi mumkin, 3.3 - 3.5 va 3.7-bandlarda ko'rsatilgan shaxslar bundan mustasno.
Imtihon topshiruvchilarning yoshi bo'yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

O'smir yoshlar uchun imtihonlar (10 yoshdan kattalar uchun)
- GOETHE-ZERTIFIKAT A1: FIT IN DEUTSCH 1

O'smir yoshlar uchun imtihonlar (12 yoshdan kattalar uchun)
- GOETHE-ZERTIFIKAT A2 FIT IN DEUTSCH
- GOETHE-ZERTIFIKAT B1

O'smir yoshlar uchun imtihonlar (15 yoshdan kattalar uchun)
- GOETHE-ZERTIFIKAT B2

Katta yoshdagilar uchun imtihonlar (16 yoshdan kattalar uchun)
- GOETHE-ZERTIFIKAT A1: START DEUTSCH 1
- GOETHE-ZERTIFIKAT A2
- GOETHE-ZERTIFIKAT B1
- GOETHE-ZERTIFIKAT B2
- GOETHE-ZERTIFIKAT C1
- GOETHE-ZERTIFIKAT C1 (2024 yildan boshlab modulli imtihon shaklida)

Katta yoshdagilar uchun imtihonlar (18 yoshdan kattalar uchun
- GOETHE-ZERTIFIKAT C2: GROSSES DEUTSCHES SPRACHDIPLOM

3.2 Für Prüfungsteilnehmende, die vor Erreichen des empfohlenen Alters oder erheblich abweichend vom empfohlenen Alter die Prüfung ablegen, ist ein Einspruch gegen das Prüfungsergebnis aus Altersgründen z. B. wegen nicht altersgerechter Themen der Prüfung o. Ä. ausgeschlossen.
Die Prüfungsteilnahme ist weder an den Besuch eines bestimmten Sprachkurses noch an den Erwerb eines Zertifikats auf einer darunterliegenden Stufe gebunden.

3.2 Imtihonlar uchun tavsiya etilgan yoshga yetmagan yoki tavsiya etilgan yoshdan katta farq qiluvchi yoshdagi imtihon topshiruvchilar, imtihon natijalari yuzasidan o'z etirozlariga yoshga bog'liq holatlarni sabab qilib ko'rsata olmaydilar (masalan, imtihon mavzularining yoshga nomuvofiqligi kabi).

Imtihonda ishtirok etish maxsus til kurslarida qatnashish yoki quyiroq daraja uchun sertifikat olish bilan bog'liq emas.

3.3 Personen, die eine Prüfung oder einen Prüfungsteil oder ein Modul nicht bestanden haben, sind bis zum Ablauf der vom jeweils zuständigen Prüfungszentrum für einen wiederholten Prüfungstermin bestimmten Fristen von der Prüfungsteilnahme ausgeschlossen (vgl. § 15).

3.3 Imtihon, imtihon qismi yoki modulini topshira olmagan shaxslar, tegishli imtihon markazi tomonidan imtihonni qayta topshirish uchun belgilangan cheklov muddati tugaguniga qadar imtihon topshirishlariga ruxsat etilmaydi (15-bandga qarang).

3.4 Personen, die Zeugnisse des Goethe-Instituts gefälscht haben oder ein gefälschtes Zeugnis oder manipulierte Screenshots der Prüfungsergebnisanzeige auf *Mein Goethe.de* vorlegen, sind für die Dauer von einem (1) Jahr ab Kenntniserlangung des Goethe-Instituts von der Fälschung von der Prüfungsteilnahme ausgeschlossen. Diese Sperrfrist von einem (1) Jahr gilt weltweit für die Prüfungsteilnahme sowohl an Goethe-Instituten als auch bei Prüfungskooperationspartnern des Goethe-Instituts.

3.4 Gyote-Institut sertifikatlarini soxtalashtirgan, soxta sertifikatlarni yoki *Mein Goethe.de* internet sahifasida ko'rsatilgan imtihon natijalarining soxtalashtirilgan skrinshotlarini taqdim etgan shaxslar, Gyote-Institutiga qalbakilashtirish holati ma'lum bo'lganidan so'ng bir (1) yil muddatga imtihon topshirish huquqidan mahrum qilinadi. Bir (1) yillik taqiq Gyote-Institutlari va Gyote-Institutining imtihon bo'yicha hamkorlarida tashkil etiladigan barcha imtihonlar uchun amal qiladi.

3.5 Personen, die Prüfungsinhalte an Dritte weitergegeben haben, werden für die Dauer von einem (1) Jahr ab Kenntniserlangung des Goethe-Instituts von der Prüfungsteilnahme ausgeschlossen. 3.4 Satz 2 gilt entsprechend.

3.5 Imtihon mazmunini uchinchi shaxslarga tarqatgan shaxslarga, bu haqda Gyote-Institutiga ma'lum bo'lgan kundan boshlab bir (1) yil davomida imtihon topshirishga ruxsat etilmaydi. 3.4-bandning 2-jumlasi mos ravishda qo'llaniladi.

3.6 Darüber hinaus behält sich das Goethe-Institut das Einleiten weiterer rechtlicher Schritte vor.

3.6 Bundan tashqari Gyote-Instituti keyingi qonuniy choralar ko'rish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.7 Im Fall eines wiederholten Prüfungsausschlusses aufgrund von 3.3, 3.4, 3.5, 11.6 und 11.7 wird die betroffene Person für die Dauer von fünf (5) Jahren ab dem wiederholten Prüfungsausschluss von der Prüfungsteilnahme an allen Prüfungszentren des Goethe-Instituts ausgeschlossen.

3.7 Imtihondan 3.3, 3.4, 3.5, 11.6 va 11.7-bandlar asosida - qayta chetlatilgan shaxs, Gyote-Institutining barcha imtihon markazlarida imtihondan takroriy chetlatilgan kundan boshlab 5 (besh) yil muddatga imtihon topshirishdan chetlashtiriladi.

3.8 Personen, die von der Prüfung gemäß 11.1 bis 11.7 ausgeschlossen worden sind, sind bis zum Ablauf der in § 11 geregelten Sperrfristen von der Prüfungsteilnahme ausgeschlossen.

3.8 Imtihondan 11.1 dan 11.7 gacha bo'lgan bandlarga muvofiq chetlashtirilgan shaxslar 11-moddada belgilangan taqiq muddatlari tugaguniga qadar imtihonda ishtirok eta olmaydi.

## § 4 Anmeldung

4.1 Vor Anmeldung zur Prüfung erhalten die Prüfungsinteressierten ausreichend Möglichkeiten, sich am Prüfungszentrum oder via Internet über die Prüfungsanforderungen, die *Prüfungsordnung* und *Durchführungsbestimmungen* und über die anschließende Mitteilung der Prüfungsergebnisse zu informieren. *Prüfungsordnung* und *Durchführungsbestimmungen* sind in ihrer jeweils aktuellen Fassung im Internet zugänglich.
Mit der Anmeldung bestätigen die Prüfungsteilnehmenden oder bei Minderjährigen die gesetzlichen Vertreter, dass sie die jeweils geltenden Regelungen (siehe Präambel, S. 2) zur Kenntnis genommen haben und anerkennen.

4.2 Nähere Informationen zu den Anmeldemöglichkeiten enthalten das Anmeldeformular oder die Prüfungsbeschreibung im Internet. Die Anmeldeformulare erhalten die Prüfungsinteressierten beim örtlichen Prüfungszentrum oder via Internet.

4.3 Bei beschränkt geschäftsfähigen Minderjährigen ist die Einwilligung des/der gesetzlichen Vertreters/Vertreterin erforderlich.

4.4 Soweit die jeweilige Anmeldemöglichkeit besteht, kann das ausgefüllte Anmeldeformular per Post, Fax oder E-Mail an das jeweils zuständige Prüfungszentrum zurückgesendet werden.

4.5 Für die Anmeldung, den Vertragsschluss und die Vertragsabwicklung gelten vorrangig die *Allgemeinen Geschäftsbedingungen* des Goethe-Instituts e.V. Auf diese wird bei der Anmeldung ausdrücklich hingewiesen.

4.6 Für den Fall, dass die Anmeldung oder die Durchführung der Prüfung über einen Prüfungskooperationspartner erfolgt, gelten ergänzend die *Allgemeinen Geschäftsbedingungen* des Prüfungskooperationspartners. Auf diese wird bei der Anmeldung ausdrücklich hingewiesen.

4.7 Die Angabe der konkreten Uhrzeit wird den Prüfungsinteressenten ca. fünf (5) Tage vor dem Prüfungstermin in Textform mitgeteilt.

## § 4 Ro'yxatdan o'tish

4.1 Imtihonga roʻyxatdan oʻtishdan oldin imtihon topshirish istagida boʻlgan shaxslar imtihonga qoʻyiladigan talablar, *Imtihon o'tkazish tartibi* va *Imtihon o'tkazish qoidalari*, shuningdek, imtihon natijalarini ma'lum qilish tartibi bilan imtihon markazida yoki internet sahifalari orqali batafsil tanishib chiqish imkoniga ega bo'ladilar. *Imtihon o'tkazish tartibi* va *Imtihon o'tkazish qoidalari*ning so'nggi versiyalari onlayn rejimida mavjud.
Ro'yxatdan o'tish orqali imtihon topshiruvchilar yoki voyaga etmagan shaxslarda ularning qonuniy vakillari amaldagi qoidalar (muqaddimaning 2-bandiga qarang) bilan tanishganliklarini va roziliklarini tasdiqlaydilar.

4.2 Ro'yxatdan o'tish haqida batafsil ma'lumot internet sahifadagi ro'yxatdan o'tish shaklida yoki imtihon tavsifida berilgan. Ro'yxatdan o'tish shakllarini mahalliy imtihon markazida yoki onlayn tarzda olish mumkin.

4.3 Huquqiy layoqati cheklangan voyaga yetmaganlar uchun qonuniy vakilning roziligi talab qilinadi.

4.4 Agar tegishli tarzda ro'yxatdan o'tish imkoniyati mavjud bo'lsa, to'ldirilgan ro'yxatdan o'tish shakli tegishli ma'sul imtihon markaziga pochta, faks yoki elektron pochta orqali yuborilishi mumkin.

4.5 Ro'yxatdan o'tish, shartnoma tuzish va uning ijrosida Gyote-Institut e.V. ning *Umumiy tijorat shartlari* ustuvor hisoblanadi. Bu haqda ro'yxatdan o'tish jarayonida ma'lum qilinadi.

4.6 Agar imtihonga ro'yxatdan o'tish va uni o'tkazish jarayoni hamkor tashkilot tomonidan amalga oshirilsa, qo'shimcha ravishda imtihon o'tkazish bo'yicha hamkor tashkilotning umumiy tijorat shartlari ham qo'llaniladi. Ro'yxatdan o'tish vaqtida bu haqda alohida ta'kidlanadi.

4.7 Imtihonning boshlanish soatlari imtihon sanasidan taxminan besh (5) kun oldin matn shaklida xabar qilinadi.

4.8 Soweit diese Anmeldemöglichkeit besteht, kann die Anmeldung online unter www.goethe.de oder gegebenenfalls über die Website des jeweiligen Prüfungszentrums erfolgen. Für die Anmeldung, den Vertragsschluss und die Vertragsabwicklung gelten vorrangig die *Allgemeinen Geschäftsbedingungen* des Goethe-Instituts e.V. Auf diese wird bei der Anmeldung ausdrücklich hingewiesen (vgl. 4.5).

4.8 Agar shunday imkoniyat mavjud bo'lsa, ro'yxatdan o'tish www.goethe.de saytida yoki tegishli imtihon markazining internet sahifasida amalga oshirilishi mumkin. Ro'yxatdan o'tish, shartnoma tuzish va uning ijrosida Gyote-Institut e.V. ning *Umumiy tijorat shartlari* ustuvor hisoblanadi. Bu haqda ro'yxatdan o'tish jarayonida alohida ta'kidlanadi (4.5 bandga qarang).

4.9 Soweit diese Anmeldemöglichkeit besteht, kann die Anmeldung persönlich beim örtlichen Prüfungszentrum erfolgen. Für den Vertragsschluss und die Vertragsabwicklung gelten vorrangig die *Allgemeinen Geschäftsbedingungen* des Goethe-Instituts e.V. Auf diese wird bei der Anmeldung ausdrücklich hingewiesen (vgl. 4.5, 4.8).

4.9 Agar shunday imkoniyat mavjud bo'lsa, ro'yxatdan o'tish tegishli mahaliy imtihon markazida shaxsan amalga oshirilishi mumkin. Ro'yxatdan o'tish, shartnoma tuzish va uning ijrosida Gyote-Institut e.V. ning *Umumiy tijorat shartlari* ustuvor hisoblanadi. Bu haqda ro'yxatdan o'tish jarayonida alohida ta'kidlanadi (4.5 va 4.8 bandlarga qarang).

## § 5 Termine

Das jeweilige Prüfungszentrum bestimmt die Anmeldefrist sowie Ort und Zeit der Prüfung. Bei nicht modular ablegbaren Prüfungen werden mündlicher und schriftlicher Prüfungsteil in der Regel innerhalb eines Zeitraums von 14 Tagen durchgeführt. Die aktuellen Prüfungstermine und Anmeldefristen finden sich auf den Anmeldeformularen oder bei der Prüfungsbeschreibung auf der Website des jeweiligen Prüfungszentrums.

## § 5 Muddat

Tegishli imtihon markazi ro'yxatga olish muddatini, imtihon joyi va vaqtini belgilaydi. Modullar shaklda topshirilishi mumkin bo'lmagan imtihonlar uchun imtihonning og'zaki va yozma qismlari odatda 14 kun davomida o'tkaziladi. Aktual imtihon sanalari va ro'yxatdan o'tish muddatlari ro'yxatdan o'tish shakllarida yoki tegishli imtihon markazining internet sahifasidagi imtihon tavsifida beriladi.

## § 6 Prüfungsgebühr und Gebührenerstattung

6.1 Die Gebühr richtet sich nach der jeweils gültigen lokalen Gebührenordnung und wird auf dem Anmeldeformular oder bei der Prüfungsbeschreibung im Internet ausgewiesen. Die Prüfung kann nicht begonnen werden, sofern die vereinbarten Zahlungstermine nicht eingehalten wurden.

6.2 Wird ein/-e Teilnehmende/-r von der Prüfung ausgeschlossen (vgl. § 11), wird die Prüfungsgebühr nicht zurückerstattet.

6.3 Gilt eine Prüfung aus Krankheitsgründen als nicht abgelegt (vgl. § 12), wird die Prüfungsgebühr für den nächsten Prüfungstermin gutgeschrieben. Das jeweils zuständige Prüfungszentrum entscheidet über die Erhebung einer Verwaltungsgebühr in Höhe von bis zu 25 % der Prüfungsgebühr für die Umbuchung. Dem/Der Prüfungsteilnehmenden bleibt der Nachweis vorbehalten, dass ein Schaden überhaupt nicht entstanden oder wesentlich niedriger als die Pauschale ist.

## § 6 Imtihon to'lovi va to'lovni qaytarish

6.1 Imtihon to'lovi joriy mahalliy to'lovlar tartibiga muvofiq belgilanadi va ro'yxatga olish varaqasida yoki onlayn imtihon tavsifida ko'rsatiladi. Agar kelishilgan to'lov muddatlari bajarilmasa, imtihon jarayoni boshlanmaydi.

6.2 Agar ishtirokchi imtihondan chetlatilsa (11-bandga qarang), imtihon uchun to'lov qaytarilmaydi.

6.3 Agar imtihon kasallik tufayli topshirilmagan deb hisoblansa (12-bandga qarang), u holda imtihon to'lovi keyingi imtihon sanasi uchun band qilinadi. Tegishli imtihon markazi qayta band qilish uchun imtihon to‘lovining 25 foizigacha ma’muriy yig‘im undirishi mumkin. Imtihon topshiruvchi hech qanday zarar ko'rilmaganligini yoki zarar belgilangan to'lovdan sezilarli darajada kam ekanligini isbotlash huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.4 Wird einem Einspruch stattgegeben (vgl. § 20), so gilt die Prüfung als nicht abgelegt und die Prüfungsgebühr wird vom Prüfungszentrum gutgeschrieben oder erstattet.

6.4 Agar e'tiroz qanoatlantirilsa (20-bandga qarang), imtihon o'tmagan deb hisoblanadi va imtihon to'lovi imtihon markazi tomonidan hisobga olinadi yoki qaytariladi.

## § 7 Prüfungsmaterialien

Die Prüfungsmaterialien (im Print-, Digital- und Online-Format) werden ausschließlich in der Prüfung und nur in der Form verwendet, in der sie von der Zentrale des Goethe-Instituts ausgegeben werden. Die Prüfungstexte werden weder in ihrem Wortlaut noch in ihrer Anordnung verändert; ausgenommen von dieser Bestimmung ist die Korrektur technischer Fehler oder Mängel.

## § 7 Imtihon materiallari

Imtihon materiallari (bosma, raqamli va onlayn formatda) faqat imtihon uchun va faqat Gyote-Institutining markaziy idorasi tomonidan chiqarilgan shaklda qo'llaniladi. Imtihon materiallarining matnlari tahrirda ham, tartibida ham o'zgartirilishi mumkin emas, texnik xatolar yoki kamchiliklarni tuzatish bundan mustasno.

## § 8 Ausschluss der Öffentlichkeit

Die Prüfungen sind nicht öffentlich.

Ausschließlich Vertreter/-innen oder Beauftragte des Goethe-Instituts sind aus Gründen der Qualitätssicherung (vgl. § 26) berechtigt, auch unangemeldet den Prüfungen beizuwohnen. Sie dürfen jedoch nicht in das Prüfungsgeschehen eingreifen.
Eine solche Hospitation ist im *Protokoll über die Durchführung der Prüfung* unter Angabe des Zeitraums zu dokumentieren.

## § 8 Jamoatchilikni istisno qilish

Imtihonda begona shaxslarning bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sifatni ta'minlash maqsadida (26-bandga qarang) faqat Gyote-Institutining vakillari yoki ma'sul hodimlari imtihonlarda ogohlantirishsiz ishtirok etish huquqiga ega. Ammo ular imtihon jarayoniga aralashishga haqli emas.

Bunday kuzatish *Imtihon o'tkazish bayonnomasi*da vaqtni ko'rsatgan holda rasmiylashtirilishi kerak.

## § 9 Ausweispflicht

Vertreter/-innen oder Beauftragte des Prüfungszentrums sind verpflichtet, die Identität der Prüfungsteilnehmenden zweifelsfrei festzustellen. Die Prüfungsteilnehmenden weisen sich vor Prüfungsbeginn und gegebenenfalls zu jedem beliebigen Zeitpunkt während des Prüfungsablaufs mit einem offiziellen, gültigen Ausweisdokument mit Lichtbild aus. Das Prüfungszentrum hat das Recht, über die Art des Ausweisdokuments zu entscheiden und weitere Maßnahmen zur Klärung der Identität durchzuführen. Welche Dokumente akzeptiert werden und welche weiteren Maßnahmen zur Identitätsfeststellung vorgenommen werden können, wird dem/der Prüfungsteilnehmenden zusammen mit der Entscheidung über die Teilnahme (§§ 3, 4) mitgeteilt.

## § 9 Shaxsini tasdiqlash majburiyati

Imtihon markazining vakillari yoki ma'sul hodimlari imtihon ishtirokchilarining shaxsini aniqlashlari shart. Imtihon boshlanishidan oldin, hamda istalgan vaqtda imtihon topshiruvchilar shaxsini tasdiqlovchi rangli fotosuratga ega rasmiy xujjatni taqdim etish orqali o'zlarini tanishtirishlari kerak. Imtihon markazi shaxsni tasdiqlovchi hujjat turi to‘g‘risida qaror qabul qilishga va shaxsni aniqlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rishga haqli. Qanday hujjatlar qabul qilinishi va shaxsni aniqlash uchun qanday qo‘shimcha choralar ko‘rilishi mumkinligi, imtihon topshiruvchiga uning imtihonda ishtirok etishi to‘g‘risidagi qaror bilan birga ma’lum qilinadi (§§ 3, 4).

## § 10 Aufsicht

Durch mindestens eine qualifizierte Aufsichtsperson wird sichergestellt, dass die Prüfungen ordnungsgemäß durchgeführt werden. Die Prüfungsteilnehmenden dürfen während der laufenden Prüfung den Prüfungsraum nur einzeln verlassen. Dies wird im *Protokoll über die Durchführung der Prüfung* (vgl. § 17) unter Angabe des konkreten Zeitraums vermerkt. Teilnehmende, die die Prüfung vorzeitig beenden, dürfen den Prüfungsraum während der Prüfung nicht mehr betreten.

Die Aufsichtsperson
- gibt während der Prüfung die nötigen organisatorischen Hinweise,
- stellt sicher, dass die Teilnehmenden selbstständig und nur mit den erlaubten Arbeitsmitteln (vgl. auch § 11) arbeiten,
- ist nur zur Beantwortung von Fragen zur Durchführung der Prüfung befugt,
- darf keine Fragen zu Prüfungsinhalten beantworten oder kommentieren.

## § 10 Nazorat

Kamida bitta malakali nazoratchi, imtihon jarayoni tegishli tartibda o'tkazilishini ta'minlaydi. Imtihon ishtirokchilari imtihon o'tkaziladigan xonani faqat bittadan tark etishlari mumkin. Bu holat *Imtihon o'tkazish bayonnomasi* da (17-bandga qarang) tegishli aniq vaqtni ko'rsatgan holda qayd etiladi. Imtihon vazifalarini belgilangan muddatidan oldin yakunlagan va imtihon honasidan chiqib ketgan imtihon topshiruvchilar imtihon vaqtida xonaga qayta kiritilmaydi.

Nazoratchi
- imtihon vaqtida zarur tashkiliy ko'rsatmalarni beradi;
- ishtirokchilarning mustaqil va faqat tasdiqlangan vositalar bilan ishlayotganini nazorat qiladi (§ 11 ga qarang),
- faqat imtihon bilan bog'liq savollarga javob berishga vakolatli,
- imtihon mazmuniga oid savollarga javob berishi yoki sharhlashi mumkin emas.

## § 11 Ausschluss von der Prüfung

11.1 Von der Prüfung wird ausgeschlossen, wer in Zusammenhang mit der Prüfung täuscht, unerlaubte Hilfsmittel mitführt, verwendet oder sie anderen gewährt oder sonst durch sein Verhalten den ordnungsgemäßen Ablauf der Prüfung stört.

11.2 Als unerlaubte Hilfsmittel gelten fachliche Unterlagen, die weder zum Prüfungsmaterial gehören noch in den *Durchführungsbestimmungen* vorgesehen sind (z. B. Wörterbücher, Grammatiken, vorbereitete Konzeptpapiere o. Ä.).

11.3 Technische Hilfsmittel, wie Mobiltelefone, Minicomputer, Smartwatches oder andere zur Aufzeichnung oder Wiedergabe geeignete Geräte, dürfen weder in den Vorbereitungsraum noch in den Prüfungsraum mitgenommen werden.

11.4 Ein Täuschungsversuch liegt auch dann vor, wenn in der Prüfung keine Eigenleistung erbracht wurde oder die Prüfungsleistungen Plagiate sind.

11.5 Bereits der Versuch von Prüfungsteilnehmenden, vertrauliche Prüfungsinhalte Dritten zugänglich zu machen, führt zum Ausschluss von der Prüfung.

## § 11 Imtihondan chetlashtirilish

11.1 Imtihonda ishtirok etish uchun yolg'on ma'lumot bergan, ruxsat etilmagan yordamchi vositalarni imtihon jarayoniga olib kelib, ulardan foydalanishga uringan, ularni boshqalarga bergan, va imtihonning tegishli tartibda o't-kazilishiga halaqit bergan shaxs imtihondan chetlashtiriladi.

11.2 Ruxsat etilmagan yordamchi vositalarga imtihon materialiga tegishli bo'lmagan, *Imtihon o'tkazish qoidalari*da ko'rsatilmagan barcha vositalar kiradi (masalan, lug'atlar, grammatikadan materiallar, konspektlar va boshqalar).

11.3 Tayyorgarlik ko'rish yoki imtihon topshirish uchun mo'ljallangan xonaga mobil telefonlar, mini-kompyuterlar, aqlli soatlar yoki yozib olish, tinglash uchun mo'ljallangan vositalar kabi texnik jihozlarni olib kirish taqiqlanadi.

11.4 Imtihon topshiriqlarini mustaqil bajarmaslik, yoki ularning javoblarni ko'chirib olish ham aldashga urinish hisoblanadi.

11.5 Shuningdek, imtihon ishtirokchilarining imtihon materiallari mazmunini uchinchi shaxslarga taqdim etishga urinishlari ham imtihondan chetlatilishga sabab bo'ladi.

11.6 Täuscht oder versucht ein/-e Prüfungsteilnehmende/-r in Zusammenhang mit der Prüfung über ihre/seine Identität zu täuschen, so werden diese/-r und alle an der Identitätstäuschung beteiligten Personen von der Prüfung ausgeschlossen.

11.6 Agar imtihon ishtirokchisi o'z shaxsini tasdiqlash jarayonida yolg'on ishlatib, o'zga shaxs sifatida imtihonda ishtirok etishga urinsa, ushbu jarayonda ishtirok etganlarning barchasi imtihondan chetlashtiriladi.

11.7 Gewährt der/die Prüfungsteilnehmende zur Erlangung der Prüfung einer an der Prüfung direkt oder indirekt beteiligten Person unrechtmäßige Zahlungen oder bietet andere unrechtmäßige Vorteile für das Bestehen der Prüfung an, verspricht oder gewährt diese, wird er von der Prüfung ausgeschlossen (Antikorruptionsklausel).

11.7 Agar imtihon ishtirokchisi imtihonda bevosita yoki bilvosita ishtirok etayotgan shaxsga imtihon natijalari uchun noqonuniy to'lovlar yoki boshqa qonunga xilof imtiyozlar taklif qilsa yoki taqdim etsa, u imtihondan chetlashtiriladi (korrupsiyaga qarshi kurash moddasi).

11.8 Im Falle eines Prüfungsausschlusses werden die Prüfungsleistungen nicht bewertet.

11.8 Imtihondan chetlashtirilish holatida imtihon natijalari baholanmaydi.

11.9 Über den Ausschluss hinaus behält sich das Prüfungszentrum vor, weitere rechtliche Schritte einzuleiten.

11.9 Imtihon markazi imtihon ishtirokchisini imtihondan chetlashtirish bilan bir qatorda, unga nisbatan keyingi qonuniy choralar ko'rish huquqini o'zida saqlab qoladi.

11.10 Vertreter/-innen oder Beauftragte des Prüfungszentrums haben das Recht, die Einhaltung der oben genannten Bestimmungen zu überprüfen und durchzusetzen. Zuwiderhandlungen führen zum Prüfungsausschluss.

11.10 Imtihon markazining vakillari yoki ma'sul hodimlari yuqoridagi qoidalarga rioya etilishini tekshirish, ularning amalga oshirilishini ta'minlash huquqiga ega. Qoidabuzarliklar imtihondan chetlashtirilishga olib keladi.

11.11 Wird ein/-e Prüfungsteilnehmende/-r aus einem der in 11.1 bis 11.5 genannten Gründe von der Prüfung ausgeschlossen, kann die Prüfung frühestens nach drei Monaten ab dem Tag des Prüfungsausschlusses wiederholt werden.

11.11 Agar imtihon topshiruvchi 11.1-11.5-bandlarda ko'rsatilgan sabablardan biri bo'yicha imtihondan chetlashtirilgan bo'lsa, chetlashtirilgan sanadan boshlab uch oy muddatdan so'ng takroran topshirishi mumkin.

11.12 Erfolgt der Ausschluss nach 11.6 (Identitätstäuschung) oder 11.7 (Korruption), so verhängt das Goethe-Institut, nach Abwägung aller Umstände des Einzelfalls, für die beteiligten Personen eine Sperrung von einem (1) Jahr zur Ablegung von Prüfungen im Rahmen des Prüfungsportfolios des Goethe-Instituts weltweit (vgl. § 3). Zu diesem Zweck (Kontrolle der Einhaltung einer verhängten Prüfungssperre) werden bestimmte personenbezogene Datenkategorien des/der Gesperrten, nämlich Name, Vorname, Geburtsdatum, Geburtsort, Sperrungszeitraum, Meldung durch Prüfungszentrum, an die Prüfungszentren des Goethe-Instituts (siehe dazu § 2) weltweit weitergegeben und dort dazu verarbeitet. Siehe auch § 15.

11.12 Agar imtihondan chetlashtirirsh 11.6 (o'zini o'zga shaxs sifatida tanishtirish) yoki 11.7 (korrupsiya holati) bandlariga muvofiq amalga oshirilgan bo'lsa, Gyote-Instituti barcha holatlarini batafsil o'rganib chiqib, holat ishtirokchilariga bir (1) yil muddatga Gyote-Instituti imtihonlari portfolyosi doirasida butun dunyo bo'ylab imtihon topshirishga taqiq qo'yadi (3-§ ga qarang). Shu maqsadda (imtihon topshirishga qo'yilgan taqiqqa rioya etilishini nazorat qilish maqsadida) taqiq olgan shaxslarning tegishli shaxsiy ma'lumotlari, ya'ni familiyasi, ismi, tug'ilgan sanasi, tug'ilgan joyi, ta'qiq muddati, imtihon markazining xabarnomasi bilan butun dunyo bo'ylab joylashgan Gyote-Institutining imtihon markazlariga tarqatiladi (2-bandga qarang) hamda u yerda qayta ishlanadi. Shuningdek qarang: § 15.

11.13 Stellt sich nach Beendigung der Prüfung heraus, dass der begründete Verdacht besteht, dass ein Ausschlusstatbestand gemäß 11.1 bis 11.7 erfüllt ist, so ist die Prüfungskommission (vgl. § 16) berechtigt, die Prüfung als *nicht bestanden* zu bewerten und das ggf. ausgestellte Zertifikat zurückzufordern. Die Prüfungskommission muss den/die Betroffene/-n anhören, bevor sie eine Entscheidung trifft. In Zweifelsfällen wird die Zentrale des Goethe-Instituts verständigt und um Entscheidung gebeten. Die in 11.11 und 11.12 genannten Sperrfristen gelten entsprechend.

11.13 Agar imtihon topshiruvchi haqida 11.1-11.7-bandlarga muvofiq asosli shubha imtihon yakunlangach ma'lum bo'lsa, imtihon komissiyasi (16-bandga qarang) imtihonni *qoniqarsiz* topshirildi deb baholashga, agar mavjud bo'lsa, berilgan sertifikatni qaytarishni talab qilishga haqli. Imtihon komissiyasi qaror qabul qilishdan oldin tegishli shaxs(lar) bilan suhbat o'tkazishi kerak. Ikkilanish holati yuzaga kelganida Gyote-Institutining markaziy idorasi xabardor qilinadi va qaror qabul qilish so'raladi. Bunday holda, 11.11 va 11.12-bandlarda ko'rsatilgan taqiqlash muddatlari qo'llaniladi.

## § 12 Rücktritt von der Prüfung und Abbruch der Prüfung

12.1 Unbeschadet des gesetzlichen Widerrufsrechts gilt Folgendes: Entscheidet sich ein/-e Teilnehmende/-r, die Prüfung nicht abzulegen (Rücktritt), besteht grundsätzlich kein Anspruch auf Rückerstattung von bereits entrichteten Prüfungsgebühren. Näheres ist in den *Allgemeinen Geschäftsbedingungen* geregelt. Wird die Prüfung nach Beginn abgebrochen, so gilt die Prüfung als *nicht bestanden*.

12.2 Wird eine Prüfung nicht begonnen oder nach Beginn abgebrochen und werden dafür Krankheitsgründe geltend gemacht, sind diese unverzüglich durch Vorlage eines ärztlichen Attests beim zuständigen Prüfungszentrum nachzuweisen. Die Entscheidung über das weitere Vorgehen trifft das Prüfungszentrum nach Rücksprache mit der Zentrale des Goethe-Instituts.

12.3 Hinsichtlich der Rückerstattung der Prüfungsgebühren gilt 6.2 und 6.3.

## § 12 Imtihonda ishtirok etishdan voz kechish va imtihon topshirishni to'xtatish

12.1 Imtihonda ishtirok etishdan voz kechish huquqini buzmagan holda quyidagi qoidalar qo'llaniladi: agar imtihon topshiruvchi imtihonda ishtirok etishdan voz kechishga qaror qilsa (rad etsa), to'langan imtihon to'lovlarini qaytarishni talab qilishga haqli emas. Batafsil ma'lumot *Umumiy tijorat shartlar*da. Agar imtihon topshiruvchi imtihon boshlanganidan so'ng uni tark etsa, imtihon *qoniqarsiz* topshirilgan hisoblanadi.

12.2 Agar imtihon boshlanmasdan yoki boshlanganidan so'ng to'xtatilsa va bu holatga kasallik sabab bo'lsa, tibbiy ma'lumotnoma tegishli imtihon markaziga zudlik bilan yetkazilishi kerak. Keyingi qadamlar bo'yicha qaror imtihon markazi tomonidan Gyote-Institutining markaziy idorasi bilan o'tkazilgan konsultatsiyadan so'ng qabul qilinadi.

12.3 Imtihon to'lovlarini qaytarish bo'yicha 6.2 va 6.3 bandlar qo'llanadi.

## § 13 Mitteilung der Prüfungsergebnisse

Die Mitteilung der Prüfungsergebnisse erfolgt in der Regel über das Prüfungszentrum, an dem die Prüfung abgelegt wurde. Eine individuelle vorzeitige Ergebnismitteilung ist nicht möglich.

## § 13 Imtihon natijalarini ma'lum qilish

Odatda, imtihon natijalari imtihon bo'lib o'tgan imtihon markazi orqali yetkaziladi. Natijalar haqida oldindan individual tarzda xabar berish mumkin emas.

## § 14 Zertifizierung

14.1 Die Zertifikate werden in Papierform oder digital ausgestellt. Die Form der Ausstellung der Zertifikate hängt von den Gegebenheiten am Prüfungszentrum vor Ort ab. Es besteht hierbei kein Anspruch auf die Ausstellung eines Zertifikats in der jeweils anderen Form.
Die Gültigkeit von Goethe-Zertifikaten kann auf der Website www.goethe.de/verify überprüft werden.

14.2 Das Zeugnis in Papierform wird in einfacher Ausfertigung ausgestellt und ist von dem/der Prüfungsverantwortlichen und einem/einer Prüfenden unterschrieben (vgl. § 16).

14.3 Digitale Zeugnisse werden den Prüfungsteilnehmenden als PDF-Datei zur Verfügung gestellt.

14.4 Im Falle des Zeugnisverlusts kann durch das Prüfungszentrum, bei dem sich die Teilnehmenden für die Prüfung angemeldet haben, innerhalb von 10 Jahren eine Ersatzbescheinigung ausgestellt werden. Die Ausstellung einer Ersatzbescheinigung ist kostenpflichtig.

14.5 Die Prüfungsleistungen werden in Form von Punkten und gegebenenfalls sich daraus ableitenden Prädikaten dokumentiert. Das Prüfungszentrum weist bei Nichtbestehen auf die Bedingungen zur Wiederholung der Prüfung hin. Die Teilnahme an einer abgelegten, aber nicht bestandenen Prüfung wird unter Nennung der erhaltenen Punktwerte auf Wunsch bestätigt.

14.6 Prüfungsteilnehmende, die unten stehende nicht-modulare Prüfungen in allen Teilen abgelegt und bestanden haben, erhalten jeweils ein Gesamtzeugnis, welches die Ergebnisse von allen vier Prüfungsteilen ausweist:
- GOETHE-ZERTIFIKAT A1: FIT IN DEUTSCH 1
- GOETHE-ZERTIFIKAT A1: START DEUTSCH 1
- GOETHE-ZERTIFIKAT A2 FIT IN DEUTSCH
- GOETHE-ZERTIFIKAT A2
- GOETHE-ZERTIFIKAT C1 (bis 31.01.2025)

## § 14 Sertifikat

14.1 Sertifikatlar qog'oz yoki raqamli shaklda beriladi. Sertifikatlarni berish shakli imtihon markazidagi mahalliy sharoitga bog'liq. Sertifikatni boshqa maxsus shaklda tayyorlab berish mumkin emas.
Gyote-sertifikatlarining amal qilish muddatini www.goethe.de/verify internet sahifasida tekshirish mumkin.

14.2 Qog'oz shaklidagi sertifikat bir nusxada beriladi va imtihon uchun mas'ul shaxs va imtihon oluvchi mutaxassis tomonidan imzolanadi (qarang. § 16).

14.3 Raqamli shakldagi sertifikatlar imtihon ishtirokchilariga PDF shaklda beriladi.

14.4 Sertifikat yo'qolgan taqdirda, imtihon ishtirokchisi imtihon topshirish uchun ro'yxatdan o'tgan imtihon markazi tomonidan 10 yil ichida qayta tiklab berilishi mumkin. Sertifikatni qayta tiklash uchun to'lov olinadi.

14.5 Imtihon natijalari ballar, shuningdek, ularga mos baho shaklida rasmiylashtiriladi. Imtihon natijasi qoniqarsiz bo'lganda, imtihon markazi imtihonni qayta topshirish shartlari bilan tanishtiradi. Hohishga ko'ra imtihonda ishtirok etganlik ammo qoniqarsiz natijaga erishilganlik haqidagi tasdiqnoma, natijalarni ballarda ko'rsatilgan holatda tayyorlab berilishi mumkin.

14.6 Quyida keltirilgan modulli bo'lmagan imtihonlarning barcha qismlaridan o‘tgan imtihon topshiruvchilar imtihonning barcha to‘rt qismi natijalarini aks ettiruvchi umumiy sertifikat oladilar:
- GOETHE-ZERTIFIKAT A1: FIT IN DEUTSCH 1
- GOETHE-ZERTIFIKAT A1: START DEUTSCH 1
- GOETHE-ZERTIFIKAT A2 FIT IN DEUTSCH
- GOETHE-ZERTIFIKAT A2
- GOETHE-ZERTIFIKAT C1 (31.01.2025 gacha)

14.7.1 Prüfungsteilnehmende, die ein Modul oder mehrere Module der Prüfungen

- GOETHE-ZERTIFIKAT B1
- GOETHE-ZERTIFIKAT B2
- GOETHE-ZERTIFIKAT C1 (modular ab 01.01.2024)
- GOETHE-ZERTIFIKAT C2: GROSSES DEUTSCHES SPRACHDIPLOM

abgelegt und bestanden haben, erhalten je ein Zeugnis über das oder die abgelegte(n) Modul(e).

14.7.1 Quyidagi imtihonlarning bir yoki bir nechta modulini muvaffaqiyatli topshirgan imtihon ishtirokchilari, topshirilgan modul / modullar bo'yicha sertifikat oladilar:

- GOETHE-ZERTIFIKAT B1
- GOETHE-ZERTIFIKAT B2
  GOETHE-ZERTIFIKAT C1 (01.01.2024 dan boshlab modulli imtihon shaklida)
- GOETHE-ZERTIFIKAT C2: GROSSES DEUTSCHES SPRACHDIPLOM

14.7.2 Werden alle vier Module an **einem** Prüfungsort und **einem** Prüfungstermin abgelegt und bestanden, haben die Prüfungsteilnehmenden alternativ das Recht auf ein Gesamtzeugnis., das alle vier Module ausweist.

14.7.2 Agar barcha to'rtta modul **bitta** imtihon markazida va **bitta** imtihon sanasida muvaffaqiyatli topshirilgan bo'lsa, imtihon ishtirokchilari barcha to'rt modulni qamrab olgan umumiy sertifikat olishlari mumkin.

14.7.3 Werden zu einem späteren Zeitpunkt ein oder mehrere Module erneut abgelegt, sind die dafür erhaltenen Zeugnisse mit bereits zuvor erworbenen kombinierbar.

14.7.3 Agar keyinchalik bir yoki bir nechta modullar qayta topshirilgan bo'lsa, ular uchun olingan sertifikatlar ilgari olingan sertifikatlar bilan birlashtirilishi mumkin.

14.7.4 Sofern es die organisatorischen Möglichkeiten am Prüfungszentrum erlauben, kann auf Wunsch zusätzlich ein Gesamtzeugnis ausgestellt werden. Auf dem Gesamtzeugnis werden die besten Ergebnisse, die innerhalb eines Jahres in den vier Modulen erzielt wurden, aufgeführt.
Das Gesamtzeugnis bescheinigt das Bestehen aller vier Module innerhalb eines Jahres

- an Goethe-Instituten innerhalb der Europäischen Union
- an Goethe-Instituten in Drittstaaten innerhalb eines Landes.

14.7.4 Imtihon markazining tashkiliy imkoniyatlaridan kelib chiqib hohishga ko'ra qo'shimcha umumiy sertifikat tayyorlab berilishi mumkin. Umumiy sertifikatda barcha to'rtta modul bo'yicha bir yil davomida erishilgan eng yaxshi natijalar qayd etiladi.
Umumiy sertifikat barcha to'rtta modul bir yil ichida

- Yevropa Ittifoqidagi Gyote-Institutlarida
- Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlardagi Gyote-Institutlarida

muvaffaqiyatli topshirilganligini tasdiqlaydi.

14.7.5 Institutsübergreifende Gesamtzeugnisse können nur von Goethe-Instituten ausgestellt werden, an denen mindestens ein Modul erfolgreich abgelegt wurde.

14.7.5 Agar imtihon turli Goethe-Institutlarida topshirilgan bo'lsa, yagona umumiy sertifikat faqat kamida bitta modul muvaffaqiyatli topshirilgan Gyote-Instituti tomonidan berilishi mumkin.

14.7.6 An Goethe-Zentren und bei Prüfungskooperationspartnern kann ein Gesamtzeugnis ausgestellt werden, wenn alle vier Module **innerhalb eines Jahres am gleichen Prüfungszentrum** bestanden wurden.

14.7.6 Agar to'rtta modul **bir imtihon markazida bir yil ichida** muvaffaqiyatli topshirilgan bo'lsa, umumiy sertifikat Gyote-markazlarida va imtihon bo'yicha hamkor muassasalarda ham berilishi mumkin.

14.7.7 Das jeweils zuständige Prüfungszentrum entscheidet über die Erhebung einer Verwaltungsgebühr in Höhe von bis zu 25 % der Prüfungsgebühr für die Ausstellung eines Gesamtzeugnisses.

14.7.7 Tegishli imtihon markazi umumiy sertifikat berish uchun imtihon to'lovining 25% gacha ma'muriy yig'im undirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

## § 15 Wiederholung der Prüfung

Die in 14.6 und 14.7.1 genannten Prüfungen können als Ganzes beliebig oft wiederholt werden; für die in 14.7.1 genannten modularen Prüfungen besteht darüber hinaus die Möglichkeit, auch einzelne Module beliebig oft zu wiederholen.
Vom Prüfungszentrum können bestimmte Fristen für einen Wiederholungstermin festgelegt werden. Auf diese wird bei der Mitteilung des Prüfungsergebnisses hingewiesen. Ein Rechtsanspruch auf einen bestimmten Prüfungstermin besteht nicht. Siehe auch 3.3 bis 3.5, 3.7 sowie 11.11 bis 11.13.

## § 15 Imtihonni qayta topshirish

14.6 va 14.7.1-bandlarda ko'rsatilgan imtihonlarni zarurat bo'lganda to'liq shaklda qayta topshirish mumkin; shuningdek, 14.7.1-bandda ko'rsatilgan modulli imtihonlarning tegishli modullarini ham ko'p marotaba qayta topshirish imkoni mavjud.
Imtihon markazi tomonidan qayta topshirish uchun muayyan muddatlar belgilanishi mumkin. Bu imkoniyat haqida imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtda ma'lum qilinadi. Hohishga ko'ra tanlangan ma'lum bir imtihon sanasida qayta topshirish huquqi mavjud emas. 3.3 dan 3.5 gacha, 3.7 hamda 11.11 dan 11.13 gacha bo'lgan bandlarga qarang.

## § 16 Prüfungskommission

Für die Abnahme und ordnungsgemäße Durchführung der Prüfung beruft das Prüfungszentrum eine Prüfungskommission ein, die sich aus zwei Prüfenden zusammensetzt, von denen in der Regel eine/-r der/die Prüfungsverantwortliche des jeweiligen Prüfungszentrums ist.

## § 16 Imtihon komissiyasi

Imtihon olish va uni tegishli tartibda o'tkazish uchun imtihon markazi ikkita imtihon oluvchi mutaxassisdan iborat imtihon komissiyasini tayinlaydi, ulardan biri odatda tegishli imtihon markazining imtihon oluvchi mutaxassisi hisoblanadi.

## § 17 Protokoll über die Durchführung der Prüfung

Über den Verlauf der Prüfung wird ein Protokoll (im Print- oder Digitalformat) angefertigt. Darin werden die Daten zur jeweiligen Prüfung (Prüfungsteilnehmende/-r, Prüfungszentrum, Prüfungstermin u. a.) einschließlich Uhrzeit und besondere Vorkommnisse während der Prüfung festgehalten.

## § 17 Imtihon o'tkazish bo'yicha bayonnoma

Imtihon jarayoni bo'yicha bayonnoma (bosma yoki raqamli shaklda) tayyorlanadi. Unga tegishli imtihon tafsilotlari (imtihon oluvchi, imtihon markazi, imtihon sanasi va boshqalar), shu jumladan imtihon vaqti va maxsus holatlar kiritiladi.

## § 18 Befangenheit

Die Besorgnis der Befangenheit eines/einer Prüfenden kann der/die Prüfungsteilnehmende nur unverzüglich und nur vor Beginn der mündlichen Prüfung vorbringen.
Die Entscheidung über die Mitwirkung des/der Prüfenden trifft der/die Prüfungsverantwortliche.
In der mündlichen Prüfung hat mindestens einer der beiden Prüfenden keine/-n Prüfungsteilnehmende/-n im letzten vor der Prüfung von der/dem Prüfungsteilnehmenden besuchten Kurs unterrichtet. Ausnahmeregelungen bedürfen der Genehmigung durch die Zentrale des Goethe-Instituts.

## § 18 Xolislik

Agar imtihon oluvchining xolisligiga shubha tug'ilsa, imtihon topshiruvchi bu haqda faqat og'zaki imtihon boshlanishidan oldin darhol bildirishi mumkin.
Imtihon oluvchi(lar)ning ishtiroki to‘g‘risidagi qaror imtihonga mas’ul shaxs tomonidan qabul qilinadi.
Og'zaki imtihonni o'tkazishda ikkita imtihon oluvchidan kamida bittasi imtihon topshiruvchiga imtihondan oldin qatnashgan oxirgi kursida dars bermagan bo'lishi kerak. Ushbu qoidadan istisnolar Gyote-Institutining markaziy idorasi roziligini talab qiladi.

## § 19 Bewertung

Die Prüfungsleistungen werden von zwei Prüfenden/Bewertenden voneinander unabhängig bewertet. Im schriftlichen Prüfungsteil werden nur solche Markierungen und Texte bewertet, die mit zulässigen Schreibwerkzeugen erstellt wurden (Kugelschreiber, Füller, Faser- oder Gelstifte in Schwarz oder Blau). Die Einzelheiten sind den jeweiligen *Durchführungsbestimmungen* zu entnehmen.

## § 19 Baholash

Imtihon natijalari ikkita imtihon oluvchi/baholovchi tomonidan mustaqil ravishda baholanadi. Imtihonning yozma qismida faqat tasdiqlangan vositalar (sharikli va siyohli ruchka, qalam, qora yoki ko'k rangdagi kapilyar yoki gel ruchkalar) bilan qoyilgan belgilar va yozilgan matnlar baholanadi. Tafsilotlarni tegishli *Imtihon o'tkazish qoidalari* da topish mumkin.

## § 20 Einsprüche

20.1 Ein Einspruch gegen das **Prüfungsergebnis** ist innerhalb von zwei Wochen nach Bekanntgabe des Prüfungsergebnisses in Textform bei der Leitung des Prüfungszentrums, an dem die Prüfung abgelegt wurde, zu erheben. Unbegründete oder nicht ausreichend begründete Anträge kann der/die Prüfungsverantwortliche zurückweisen. Der bloße Hinweis auf eine nicht erreichte Punktzahl ist als Begründung nicht ausreichend.

20.2 Der/Die Prüfungsverantwortliche am Prüfungszentrum entscheidet darüber, ob dem Einspruch stattgegeben wird. In Zweifelsfällen wendet er/sie sich an die Zentrale des Goethe-Instituts und diese entscheidet darüber. Die Entscheidung über die Bewertung ist endgültig.

20.3 Ein Einspruch gegen die **Durchführung** der Prüfung ist unverzüglich nach Ablegen der Prüfung bei der Leitung des zuständigen Prüfungszentrums, an dem die Prüfung abgelegt wurde, in Textform zu erheben. Der/Die Prüfungsverantwortliche holt die Stellungnahmen aller Beteiligten ein, entscheidet über den Einspruch und verfasst eine Aktennotiz über den Vorgang. In Zweifelsfällen entscheidet die Zentrale des Goethe-Instituts.

20.4 Wird einem Einspruch stattgegeben, so gilt hinsichtlich der Prüfungsgebühren 6.4. Der/Die Teilnehmende kann nach seiner/ihrer Wahl statt einer Rückerstattung die Prüfung kostenlos wiederholen.

## § 20 Appellatsiya arizasi

20.1 **Imtihon natijalari** bo'yicha apellatsiya arizasi imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab ikki hafta ichida imtihon o'tkazilgan imtihon markazi rahbariyatiga matn shaklida yuborilishi kerak.
Asossiz yoki yetarlicha asoslanmagan apellatsiya arizalari imtihon uchun ma'sul shaxs tomonidan rad etilishi mumkin. Yetarlicha ball to'play olmaganlikni qayd etish, appelatsiya arizasi uchun asos bo'la olmaydi.

20.2 Appelatsiya arizasining qanoatlantirilishini imtihon markazidagi imtihon uchun ma'sul shaxs hal qiladi. Ikkilanish holati yuzaga kelganida u Gyote-Iinstitutining markaziy idorasiga murojaat qiladi, va bu masala bo'yicha qaror aynan markaziy idora tomonidan qabul qilinadi. Baholash yuzasidan qaror yakuniy qaror hisoblanadi.

20.3 Imtihon **o'tkazilishi**ga nisbatan e'tiroz imtihon topshirilgandan so'ng ma'sul imtihon markazi rahbariyatiga darhol matn shaklida bildirilishi kerak. Imtihonga mas'ul shaxs barcha imtihon topshiruvchilarning fikrini aniqlaydi, e'tiroz bo'yicha qaror qabul qiladi va jarayonni rasmiylashtiradi. Ikkilanish holati yuzaga kelganida qaror Gyote-Iinstitutining markaziy idorasi tomonidan qabul qilinadi.

20.4 Agar apellyatsiya shikoyati qondirilsa, 6.4-band imtihon to'loviga nisbatan qo'llaniladi. Imtihon topshiruvchi imtihon to'lovini qaytarish o'rniga imtihonni bepul takrorlashni tanlashi mumkin.

## § 21 Einsichtnahme

Prüfungsteilnehmende können auf Antrag nach Bekanntgabe der Prüfungsergebnisse Einsicht in ihre Prüfung nehmen. Der Antrag beschränkt geschäftsfähiger Minderjähriger bedarf der Einwilligung des/der gesetzlichen Vertreters/Vertreterin. Die Einsichtnahme muss in Begleitung des/der gesetzlichen Vertreters/Vertreterin erfolgen.

## § 21 Tekshiruv

Imtihon topshiruvchilar imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng o'z natijalarini ko'rib chiqish (tekshirish) uchun ariza bilan murojaat qilishlari mumkin. Huquqiy layoqati cheklangan voyaga yetmaganlar uchun ularning qonuniy vakilining roziligi talab qilinadi. Natijalarni ko'rib chiqish (tekshirish) qonuniy vakil ishtirokida o'tkazilishi kerak.

## § 22 Verschwiegenheit

Die Mitglieder der Prüfungskommission (vgl. § 16) bewahren über alle Prüfungsvorgänge und Prüfungsergebnisse gegenüber Dritten Stillschweigen.

## § 22 Maxfiylik

Imtihon komissiyasi a'zolari (16-bandga qarang) barcha imtihon jarayoni va imtihon natijalariga oid ma'lumotlarni uchinchi shaxslardan maxfiy saqlashlari shart.

## § 23 Geheimhaltung

Alle Prüfungsunterlagen sind vertraulich. Sie unterliegen der Geheimhaltungspflicht und werden unter Verschluss gehalten.

## § 23 Sir saqlash

Imtihonga tegishli barcha hujjatlar maxfiy hisoblanadi. Ular sir saqlash majburiyati bilan qulflangan holatda saqlanadi.

## § 24 Urheberrecht

Alle Prüfungsmaterialien sind urheberrechtlich geschützt und werden nur in der Prüfung verwendet. Eine darüberhinausgehende Nutzung, insbesondere die Vervielfältigung und Verbreitung sowie öffentliche Zugänglichmachung dieser Materialien ist nicht gestattet. Verstöße werden urheberrechtlich verfolgt.

## § 24 Mualliflik huquqi

Barcha imtihon materiallari mualliflik huquqi bilan himoyalangan va ulardan faqat imtihon maqsadlarida foydalaniladi. Ulardan ushbu maqsaddan tashqari har qanday ko'rinishda foydalanish, xususan, ko'paytirish va tarqatish, shuningdek, keng jamoatchilikka e'lon qilish mumkin emas. Qoidabuzarlik holatlari mualliflik huquqi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

## § 25 Archivierung

Die papierbasierten und digitalen Prüfungsunterlagen der Prüfungsteilnehmenden werden 12 Monate, gerechnet vom Prüfungstermin an, unter Verschluss aufbewahrt und dann fachgerecht entsorgt (Papierunterlagen) oder gelöscht (digitale Daten).
Das Dokument über das Gesamtergebnis oder bei modularen Prüfungen das Ergebnis des jeweiligen Moduls wird 10 Jahre lang aufbewahrt und dann fachgerecht entsorgt oder gelöscht.

## § 25 Arxivlash

Imtihon topshiruvchilarning qogʻoz shaklidagi va raqamli imtihon hujjatlari imtihon oʻtkazilgan sanadan e'tiboran 12 oy davomida qulflangan holatda saqlanadi va muddat tugagach qoidaga ko'ra tegishli tarzda yoʻq qilinadi (qogʻoz hujjatlar) yoki o'chirib tashlanadi (raqamli ma'lumotlar).
Umumiy natija yoki modulli imtihonlarda tegishli modul boʻyicha natija 10 yil davomida saqlanadi, shundan soʻng u tegishli tartibda yoʻq qilinadi yoki o'chirib tashlanadi.

## § 26 Qualitätssicherung

Die gleichbleibend hohe Qualität der Prüfungsdurchführung wird durch regelmäßige Kontrollen der schriftlichen und mündlichen Prüfung im Rahmen von Hospitationen sowie durch Einsichtnahme in die Prüfungsunterlagen sichergestellt (vgl. § 8). Der/Die Prüfungsteilnehmende erklärt sich damit einverstanden.

## § 26 Sifat kafolati

Yozma va og'zaki imtihon jarayonini kuzatish orqali muntazam nazorat qilish, shuningdek, imtihon hujjatlarini doimiy tekshirib borish yordamida o'tkazilayotgan imtihonlarning izchil yuqori sifati ta'minlanadi (8-bandga qarang). Imtihon topshiruvchi ushbu jarayonning o'tkazilishiga o'z roziligini beradi.

## § 27 Datenschutz

Alle an der Durchführung der Prüfung Beteiligten sind zur Geheimhaltung und zur Einhaltung der anwendbaren Datenschutz-Vorschriften verpflichtet. Das Goethe-Institut darf auf Anfrage von öffentlichen Behörden im Fall des begründeten Verdachts der Fälschung eines Goethe-Zertifikats die Echtheit des Goethe-Zertifikats bestätigen oder widerlegen.

## § 27 Shaxsga oid ma'lumotlarni himoya qilish

Imtihon o'tkazish jarayonining barcha ishtirokchilari shaxsga oid ma'lumotlarni mahfiy saqlash va himoya qilishning amaldagi qoidalariga rioya qilishi shart. Gyote-Instituti asosli shubha tug'ilganda davlat tashkilotlarining so'rovnomasiga ko'ra Gyote-sertifikatining haqiqiyligini yoki soxtaligini tasdiqlashi mumkin.

## § 28 Schlussbestimmungen

Diese *Prüfungsordnung* tritt am 1. September 2023 in Kraft und gilt für Prüfungsteilnehmende, deren Prüfung nach dem 1. September 2023 stattfindet.

Im Falle von sprachlichen Unstimmigkeiten zwischen den einzelnen Sprachversionen der *Prüfungsordnung* ist für den unstimmigen Teil die deutsche Fassung maßgeblich.

## § 28 Yakuniy qoidalar

Ushbu *Imtihon o'tkazish tartibi* 2023-yil 1-sentabrdan kuchga kiradi va 2023-yil 1-sentabrdan keyin o‘tkaziladigan imtihonlar uchun qo‘llaniladi.

*Imtihon o'tkazish tartibi* ning alohida til versiyalari o‘rtasida til tafovuti yuzaga kelgan taqdirda, tushunarsiz bo'lgan qism uchun nemis tilidagi versiya ustunlik qiladi.

---

Legende zu Formatierungen:
VERSAL: Prüfungsnamen und Prüfungsteile (z. B. GOETHE-ZERTIFIKAT B1)
*kursiv:* Dokumentenbezeichnungen, Eigennamen, Verweise (z. B. *Protokoll über die Durchführung der Prüfung*)

## ANHANG

### Zusätzliche Regelungen zu digitalen Deutschprüfungen

Wird die Prüfung digital am Prüfungszentrum abgelegt, gilt abweichend Folgendes:

### Abweichend zu § 19:

Bei digitalen Deutschprüfungen werden Aufgaben mit vorgegebenen Antwortmöglichkeiten in den Modulen LESEN und HÖREN technisch automatisiert durch die Testplattform bewertet. Beim Prüfungsteil/Modul SCHREIBEN werden nur die Texte bewertet, die in das entsprechende Textfeld eingetragen wurden.

## ILOVA

### Nemis tilidan raqamli imtihonlar bo'yicha qo'shimcha qoidalar

Agar imtihon imtihon markazida raqamli shaklda topshirilsa, quyidagilar istisno sifatida qo'llaniladi

### § 19dagi o'zgarish

Nemis tilidan raqamli imtihonlarda O'QISH va TINGLASH modullaridagi javobi tanlov shaklida berilgan topshiriqlar texnik jihatdan avtomatlashtirilgan bo'lib, natija test platformasi tomonidan baholanadi. Imtihonning YOZMA NUTQ qismi/modulida faqat javob uchun belgilangan joyga kiritilgan matnlar baholanadi.

**Zusätzliche Regelungen zu Online-Deutschprüfungen**

Wird die Prüfung online abgelegt, gilt abweichend Folgendes:

**1. Zusätzlich zu § 3:**

Vor der Anmeldung für Online-Deutschprüfungen ist die Durchführung eines Technik-Checks über den Link: https://on.examity.com/V5/systemcheck obligatorisch. Beim Buchungsprozess muss die Durchführung des Technik-Checks bestätigt werden. Details zu den technischen Voraussetzungen finden sich im Anhang der Durchführungsbestimmungen.

**2. Zusätzlich zu § 4:**

Bei Online-Deutschprüfungen wählen die Prüfungsteilnehmenden die für sie passende Uhrzeit direkt bei der Buchung aus. In Ländern mit mehreren Zeitzonen müssen die schriftliche und mündliche Online-Deutschprüfung in der gleichen Zeitzone gebucht werden.

**3. Abweichend von § 4**

Die Anmeldung von Minderjährigen für Online-Deutschprüfungen ist nicht erlaubt.

**4. Zusätzlich zu § 6:**

Erfolgt bei Online-Deutschprüfungen ein Prüfungsausschluss aufgrund der *Prüfungsordnung*, § 11 sowie der zusätzlichen Regelungen im Anhang, wird die Prüfungsgebühr nicht zurückerstattet.

Widerruft ein/-e Teilnehmende/-r eine zur Prüfungsdurchführung oder zur Sicherstellung der Prüfungssicherheit erforderliche Einwilligung, besteht kein Anspruch auf Rückerstattung von bereits entrichteten Prüfungsgebühren.

**Nemis tilidan onlayn imtihonlar bo'yicha qo'shimcha qoidalar**

Agar imtihon onlayn tarzda topshirilsa, quyidagilar istisno sifatida qo'llaniladi:

**1. § 3 ga qo'shimcha:**

Nemis tilidan onlayn imtihonlarga ro'yxatdan o'tishdan avval quyidagi havola orqali texnik tekshiruv o'tkazilishi shart: https://on.examity.com/V5/systemcheck . Imtihonga ro'yxatdan o'tish jarayonida texnik tekshiruv o'tkazilganligi tasdiqlanishi kerak. Texnik talablar bo'yicha batafsil ma'lumot *Imtihon o'tkazish qoidalari* ilovasida berilgan.

**2. § 4 ga qo'shimcha:**

Imtihon topshiruvchilar nemis tilidan onlayn imtihonlarni topshirish uchun ro'yxatdan o'tish jarayonida o'zlariga mos imtihon vaqtni tanlaydilar. Bir necha vaqt zonalari mavjud bo'lgan mamlakatlarda yozma va og'zaki onlayn imtihonlar bir xil vaqt zonasida band qilinishi kerak.

**3. § 4 dagi o'zgarish**

Nemis tilidan onlayn imtihonlarga voyaga yetmaganlarning ro'yxatdan o'tishlariga ruxsat berilmaydi.

**4. § 6 ga qo'shimcha:**

Agar nemis tilidan onlayn imtihonlardan *Imtikon o'tkazish tartibi* ning 11 -bandi, shuningdek, ilovadagi qo'shimcha qoidalarga muvofiq chetlatilish holati yuz bergan bo'lsa, imtihon to'lovi qaytarilmaydi.

Agar imtihon ishtirokchisi imtihonni o'tkazish yoki imtihon xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan rozilik xatini qaytarib olsa, u to'langan imtihon to'lovlarini qaytarib olishga haqli emas.

**5. Zusätzlich zu § 8:**

Bei Online-Deutschprüfungen sind Vertreter*innen oder Beauftragte des Goethe-Instituts zudem berechtigt, die Aufzeichnungen einzusehen.

**6. Zusätzlich zu § 11:**

Bei Online-Deutschprüfungen führen insbesondere folgende, jedoch nicht abschließend aufgelistete Szenarien zum Ausschluss von der Prüfung.

- Verwendung von technischen Geräten und Anwendungen, die nicht zu den technischen Voraussetzungen gehören (vgl. Anhang der *Durchführungsbestimmungen)*
- Abschaltung oder Ausfall von Webcam, Lautsprecher oder Mikrophon während der Prüfungsdurchführung
- Prüfungsbedingungen sind nicht adäquat (vgl. Anhang der *Durchführungsbestimmungen*): z.B. Prüfungsraum ist nicht ordnungsgemäß aufgeräumt
- eine Person/ein Haustier betritt den Prüfungsraum
- der/die Prüfungsteilnehmende verlässt den Raum ohne Absprache
- Prüfungsteilnehmende befolgen die Aufforderungen der Prüfungsaufsicht bzw. der Prüfenden nicht
- der/die Prüfungsteilnehmende ist während der Prüfung nicht ausreichend erkennbar (vgl. Anhang der *Durchführungsbestimmungen)*
- der/die Prüfungsteilnehmende hat unerlaubte Hilfsmittel versteckt (vgl. Anhang der *Durchführungsbestimmungen).*

**7. Abweichend zu § 19:**

Bei Online-Deutschprüfungen werden nur die Texte bewertet, die in das entsprechende Textfeld eingetragen wurden. Beim Prüfungsteil/Modul SCHREIBEN werden nur die Texte bewertet, die in das entsprechende Textfeld eingetragen wurden.

**8. Abweichend zu § 26**

Die gleichbleibend hohe Qualität der Prüfungsdurchführung wird durch regelmäßige Kontrollen der schriftlichen und mündlichen Prüfung durch Einsichtnahme in die Aufzeichnungen sichergestellt. Der/Die Prüfungsteilnehmende erklärt sich damit einverstanden.

**5. § 8 ga qo'shimcha**

Shuningdek, Gyote-Institutining vakillari yoki ma'sul hodimlari nemis tilidan onlayn imtihonlarning videoyozuvlarini tekshirish huquqiga ega.

**6. § 11 ga qo'shimcha**

Nemis tilidan onlayn imtihonlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan quyidagi holatlar ham imtihon topshiruvchining onlayn imtihondan chetlatilishiga sabab bo'ladi.

- Texnik talablarda ko'zda tutilmagan texnik vositalar va ilovalardan foydalanish (*Imtihon o'tkazish qoidalari* ilovasiga qarang).
- Imtihon vaqtida veb-kamera, ovoz kuchaytiruvchi vosita yoki mikrofonning o'chib qolishi yoki noto'g'ri ishlashi.
- Imtihon o'kazish shartlariga javob bermaslik (*Imtihon o'tkazish qoidalari* ilovasiga qarang): masalan, imtihon topshirilayotgan xonadagi tartibsizlik holati.
- Imtihon topshirilayotgan xonaga odam/uy hayvonining kirishi.
- Imtihon topshiruvchi xonani ruxsatsiz tark etishi.
- Imtihon topshiruvchining nazoratchi yoki imtihon oluvchilarning ko'rsatmalariga amal qilmasligi.
- Imtihon topshiruvchining shaxsini imtihon jarayonida yetarlica tasdiqlab bo'lmasligi (*Imtihon o'tkazish qoidalari* ilovasiga qarang).
- Imtihon topshiruvchi ruxsat etilmagan yordamchi vositalarni yashirgan bo'lsa (*Imtihon o'tkazish qoidalari* ilovasiga qarang).

**7. § 19 dagi o'zgarishlar**

Nemis tilidan onlayn imtihonlarda faqat belgilangan joyga kiritilgan matnlar baholanadi. Imtihonning YOZMA NUTQ qismi/modulida faqat javob uchun belgilangan joyga kiritilgan matnlar baholanadi.

**8. § 26 dagi o'zgarishlar**

Imtihonlarning sifatini yuqori darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida yozma va og'zaki imtihon videoyozuvlari muntazam nazorat qilib boriladi. Imtihon topshiruvchi ushbu jarayonning o'tkazilishiga o'z roziligini beradi.

© 2023 Goethe-Institut e.V.
Bereich 41 – DaF-Prüfungen
www.goethe.de/pruefungen